

GOVERNMENT

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining



UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**AXBOROT-TAHLILY JURNALI****ISSN 2181-3345****TAHRIRIYAT KENGASHI***Bosh muharrir:*

Burxonov Akmal Eshondedaevich –
O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga
qarshi kurashish agentligi direktori

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI:

Narbayeva Tanzila Kamalovna –
Sotsiologiya fanlari doktori, O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi,
O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga
qarshi kurashish milliy kengashi raisi.

Saidov Akmal Xolmatovich – yuridik fanlar
doktori (DSc), akademik, O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
spikeri birinchi o'rinbosari, O'zbekiston
Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish
milliy kengashi raisi o'rinbosari.

Anga Timilsina – BMT Korrupsiyaga qarshi
kurashish global dasturi maslahatchisi.

Goran Klemenich – "Mintaqaviy muloqot"
xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti eksperti.

Yodgorov Xolmo'min Buvraboyevich –
O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy
kengashi raisi.

Xakimov Obid Arzikulovich – Iqtisodiyot
fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi
direktori.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich –
yuridik fanlar doktori (DSc), professor,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti boshlig'i.

Tuxtasheva Umida Abdilovna – Yuridik
fanlar doktori (DSc), professor, O'zbekiston
Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori o'rinbosari.

Kolenko Yevgeniy Vyacheslavovich –
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi boshlig'i.

Salayev Nodirbek Saparbayevich – Yuridik
fanlar doktori (DSc), professor, Toshkent davlat
yuridik universiteti.

Tursunov Axtam Salomovich – Yuridik fanlar
doktori, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi Akademiyasi, Huquqbuzarliklar
profilaktikasi kafedrasini professori.

Bekmuradov Mansur Bobomuradovich –
Sotsiologiya fanlar doktori (DSc), professor,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi Boshqaruv
sotsiologiyasi va psixologiyasi kafedrasini
mudiri.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021-yil
15-sentabr kuni ro'yxatga olingan.
GUVOHNOMA № 1210.**

TAHRIRIYAT MANZILI:

100070 Toshkent sh., Yakkasaroy tumani,
Sh. Rustaveli, 8 A uy
Telefon: +(998) 71-202-04-02.
Pochta: info@anticorruption.uz
Internet manzili: www.uacd.uz

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar
[Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0
shartlari asosida tarqatilgan.](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**AXBOROT-TAHLILY JURNALI****ISSN 2181-3345****MUNDARIJA:****KIRISH SO'ZI**

Saidbekov B. Qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish: kecha va bugun 3

DAVLAT SIYOSATI

Ikramov A. Ichki ishlar organlari korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida 6

QONUNCHILIK

Kapital qurilish sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasi amalda 10

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

Bobojonova G Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining roli 14

Ismoilov B. O'zbekiston Respublikasida axborot-tahliliy platformalarni joriy etish korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishning muhim vositasi sifatida 19

MEHMON

Muslimov M. Qozog'iston korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy yo'nalishlari 27

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

KIRISH SO'ZI

QONUNCHILIK HUJJATLARINI KORRUPSIYAGA QARSHI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH: KECHA VA BUGUN**Bobur SAIDBEKOV***

* O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari keltirilib, ushbu sohada erishilgan yutuqlar xususida fikr yuritiladi.

Yuborilgan: 2022-yil 31-may

Qabul qilingan: 2022-yil 11-iyun

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-iyul

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Saidbekov, B. 2022. Qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish: kecha va bugun. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 2 (iyul 2022), 3–8.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss2-pp3-5>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish hisoblanadi.

So'nggi besh yillikda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohadagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan 80 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Natijada O'zbekiston Transparency International xalqaro tashkilotidagi o'z mavqeini 17 pog'onaga, Boshqaruv sifati indikatorlarining (Worldwide Governance Indicators) Korruptsiyani tiyib turish (Control of Corruption) indikatorida esa 10 pog'onaga yaxshiladi, davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratildi, mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birgalikda, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sabablariga aynan bir vosita yoki usul orqali yechim berish imkonsiz. U davlat boshqaruvining barcha tarmoqlarini qamrab oladigan kompleks vositalarni talab qiladi. Korruptsiyani oldini olishning samarali profilaktik vositalaridan biri esa, shubhasiz, qonunchilik hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sanaladi.

Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Amaldagi qonunchilikda berilgan ta'rifga ko'ra, korrupsiyaga qarshi ekspertiza

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish faoliyati 2006-yilda boshlangan bo'lib, uning shakllanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bo'lish mumkin. Jumladan:

2006-2009-yillarda Iqtisodiy tadqiqotlar markazida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ko'magida korrupsiyaga qarshi ekspertiza metodlariga tayanilgan bir qator tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlarda xususiylashtirish, ulgurji va chakana savdo, tashqi savdo operatsiyalari, bank xizmatlari, texnik jihatdan tartibga solish hamda davlat xaridlari va soliq qonunchiligini tartibga soluvchi hujjatlar o'rganildi.

Mazkur faoliyatning huquqiy asoslarini yaratish uchun 2011-yilda dastlabki qadamlar qo'yilib, Adliya vazirligi tomonidan maxsus metodika ishlab chiqildi. Uning asosida 2015-yilda Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish uslubiyoti (ro'yxat raqami 2745, 25.12.2015) qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, ushbu davrda qonunchilik hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ekspertisasi mustaqil jarayon sifatida emas balki huquqiy ekspertiza doirasida o'tkazib kelingan, korrupsiyaviy omillar turlari to'liq yoritilmagan hamda ekspertizani o'tkazish yuridik soha vakili bo'lmagan shaxslar uchun ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltirgan.

2021 yilga kelib, yangi tahrirda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi" qonunning 25-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertiza bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan ham o'tkazilishi shartligi to'g'risida qat'iy norma belgilandi. Shu yilning o'zida, Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi

Nizom (ro'yxat raqami 3287, 24.02.2021) qabul qilindi.

Mazkur nizom korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha uslubiyot va 4 ta yo'nalishdagi 23 xil korrupsiyaviy omildan iborat namunaviy savolnoma – cheklistni o'z ichiga olgan. Bunda har bir omillar bo'yicha keltirilgan aniq misollar yordamida barcha shaxslar qonunchilik hujjatlaridagi korrupsiyaviy normalarni aniqlay olishi mumkin.

Qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tizimining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5263-son qarorining qabul qilinishi bilan yangi bosqichga kirdi.

Ushbu qaror bilan joriy qilingan tizimga muvofiq ilk bor amaldagi qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Natijada 2021-yilning o'zida Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda aholi va tadbirkorlik subyektlarining kundalik hayotini tartibga soluvchi 800 dan ortiq qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur hujjatlarning 224 tasida yoki 28 foizida 650 dan ortiq korrupsiyaviy omillar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Bu borada ishlarni tizimli davom ettirish va 2026-yilga kelib amaldagi barcha qonunchilik hujjatlarini (jami 21 mingdan ortiq) korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish reja-grafigi Davlat rahbarining yuqorida aytib o'tilgan qarori bilan tasdiqlandi. Unga ko'ra, birgina joriy yilning o'zida ijtimoiy himoya, bank va moliya, tadbirkorlik va bojxona sohalariga oid 1800 dan ortiq qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkaziladi. Bunga zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlar Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-martdagi "2022-yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 140-son qarori bilan belgilab berildi.

Adliya vazirligiga esa davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga uslubiy yordam ko'rsatish vazifasi yuklatildi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasidan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish jarayonlariga jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar va mustaqil ekspertlarni keng jalb qilishning huquqiy asoslari ham yaratildi.

Endilikda mazkur sohaga qiziqish bildirgan shaxslar Adliya vazirligi tomonidan yuritiladigan Qonunchilik hujjatlari va ular

loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspertlar reyestriga kiritilib, mustaqil yoki ilmiy ekspert sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Bunda ularning qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xulosalari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy ko'rib chiqiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki bugungi kunda yurtimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishda qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tizimining xalqaro standartlarga asoslangan barcha samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda.

DAVLAT SIYOSATI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH YO'LIDA

Aziz IKRAMOV*



* O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar
vazirining o'rinbosari,
general-mayor

Annotatsiya: Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda Ichki ishlar organlarining ustuvor vazifalari qisqacha yoritilib, tizimda yo'lga qo'yilgan kadrlar tayyorlash milliy dasturlari va ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarning kompleks tahlili ko'rsatib o'tilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-may

Qabul qilingan: 2022-yil 11-iyun

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-iyul

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Ikramov, A. 2022. Ichki ishlar organlari korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 2 (iyul 2022), 9–11.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss2-pp6-9>

2017-yil 3-yanvarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bois, O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunini qabul qilindi. Ushbu hujjat mazkur illatga qarshi kurashish davlat idoralari, xususan ichki ishlar organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanishini belgilab berdi.

IIV tizimida ana shu mas'uliyatli vazifalarni bajarishga qodir kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. 2018/2019-o'quv yilidan boshlab vazirlik Akademiyasining kunduzgi va sirtqi ta'lim kursanti hamda tinglovchilari uchun "Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish" fani o'qitilmoqda. 2021/2022-o'quv yilidan esa IIV Akademiyasi Magistraturasining tashkiliy-taktik boshqaruv yo'nalishi tinglovchilariga "Korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish", tashkiliy-strategik boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan tinglovchilar uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati", Malaka oshirish institutida "Korrupsiya ma'naviyatga taxdid" o'quv fanlarini o'qitish yo'lga qo'yilgan.

2020-yilning 11-fevral kuni davlatimiz rahbari huzurida korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi tizimini joriy etishga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazilgan edi. Mazkur yig'ilish talablaridan kelib chiqib, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida tizimli ishlar olib borildi. Jumladan, IIV nashrlarida "Biz korrupsiyaga qarshimiz", "Halollikni shior qilgan xodimlar", "Pora yuzni qiladi qora" kabi ruknlar ostida ushbu mavzuda maqolalar berib borilmoqda.

Xodimlarda korrupsiyaga qarshi immunitet hosil qilishda ularning ma'naviyatini boyitish muhim omil sanaladi. Buni nazarda tutib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi qarori bilan "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Hozirda hayotga tatbiq etilayotgan mazkur Konsepsiya xodimlarining burchiga sodiq, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurasha oladigan, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, fidoyi va yuksak ma'naviyatli kadrlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Uning mazmun-mundarijasini, o'zak mag'zini "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!" degan konseptual g'oya tashkil etadi. Zero, vatanparvar, xalqqa sadoqat bilan xizmat qiladigan xodim hech qachon tamagirlik, poraxo'rlik qilmaydi. Har bir xodimda "Korrupsiya – mening karyeram va oilamga, mening kelajagimga qarshi!" tamoyiliga asoslangan tushunchani shakllantirish borasida tegishli amaliy, tashkiliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil yakuniga qadar 17 mingdan ortiq xodimning kasbiy malakasi oshirildi. Ikki mingdan ziyod profilaktika inspektori sayyor o'quv kurslarida tahsil oldi. Tizimning barcha sohaviy xizmatlarida va ta'lim muassasalarida xodimlarning korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatini shakllantirishga doir o'quv mashg'ulotlari, "Yangi O'zbekistonni korrupsiyadan xoli mamlakatga aylantirishda – birlashaylik!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Korrupsiyaning ayanchli oqibatlariga bag'ishlangan "Armon", "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman" filmlari namoyish etildi. Har bir xodimning xatti-harakatiga alohida baho berishga hamda uning xulq-atvoridan kelib chiqib, aniq tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan "xodimbay" tizimi joriy qilindi. Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida e'tibor unga sabab bo'layotgan shart-sharoit va omillarni kamaytirishga qaratilmotda. Shuni inobatga olib, inson omili ta'sirini kamaytirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

keng joriy etish choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari, ichki ishlar organlari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari bosqichma-bosqich Davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlariga o'tkazilmoqda.

Avtotransport vositalari uchun davlat raqam belgilarini rasmiylashtirishda auksion savdosi tartibi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, fuqarolar bilan ko'plab muloqotda bo'layotgan yo'l-patrol va patrol-post xizmatlarining barcha xodimlari bodikameralar bilan ta'minlanib, noxush holatlarning oldini olishda samarali foydalanib kelinmoqda.

Avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihon qabul qilishga doir talablar kuchaytirildi. Jumladan, nazariy imtihon olish xonalari masofadan kuzatuvini onlayn rejimida olib borish, imtihon jarayonini uzluksiz yozib borish imkoniyatiga ega bo'lgan videokuzatuv va zaruriy texnik vositalar bilan jihozlandi. O'rnatilgan videokuzatuv tizimi xodimlarning imtihonlarga va davlat raqam belgilarini berishga aralashuvi holatlariga chek qo'yib, korrupsiyaviy harakatlarning oldini olishga hamda jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilishda nomzodlarni sarson qilish holatlariga barham berishni nazarda tutuvchi soddalashgan tartib o'rnatildi. Ilgari 6-7 oy davomida nomzodning hujjatlari ko'rib chiqilar edi. Endi yangi tartibga ko'ra, tanlovlar jarayonini 30-40 kun ichida o'tkazilmoqda. Ushbu jarayonda shaffoflikni ta'minlash maqsadida tajriba tariqasida Toshkent shahar IIBB qoshida "Ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilish markazi" tashkil etildi. Tanlovda jamoatchilik tashkilotlari vakillari ishtirok etib, mazkur jarayon nomzodlarning ota-onalariga videokuzatuv moslamalari orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan bir necha turdagi targ'ibot materiallari tayyorlandi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati aks etgan

slayd, “Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi”, “Nafsingga qul bo’lma!”, “Jinoyatga jazo muqarrar” nomli plakatlar, shuningdek “Korrupsiya – jirkanch illat, uning quliga aylanma!”, “Biz ichki ishlar organlari xodimlari korrupsiyaga qarshimiz!” nomli bukletlar shular jumlasidandir. IIV sohaviy xizmatlar xodimlarining korrupsiyaga qarshi mustahkam immunitet shakllantirish maqsadida Ma’naviyat va ma’rifat darslarida ushbu mavzuga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, IIVning akademik litseylari o’quvchilari o’rtasida “Biz korrupsiyaga qarshimiz!” mavzusida insholar tanlovi, “Korrupsiya – kelajakka taxdid” plakatlar tanlovi, “Korrupsiya – halokatli yo’l” bukletlar tanlovi hamda “Korrupsiya – jamiyatni yemiradi” mavzusida referatlar tanlovi o’tkazish yo’lga qo’yildi.

Yana bir yangilik. Fuqarolar tomonidan ichki ishlar organlari xodimlariga pora taklif qilinganligi yuzasidan rahbariyatga bildirgi orqali murojaat qilish mexanizmi jadallashtirildi. Bunday holatlar yuzasidan shaxsiy xavfsizlik bo’linmalari tomonidan tezkor tadbirlar o’tkazilib kelinmoqda. Xususan, 2017-yilda 1 ta, 2018-yilda 52 ta, 2019-yilda 56 ta, 2020-yilda 130 ta, 2021-yilda 203 ta ana shunday holatlar aniqlanib, xodimlarga pora berishga uringan fuqarolar javobgarlikka tortildi. Bu haqda xabar bergan xodimlar esa IIV rahbariyati tomonidan munosib rag’batlantirildi.

Korrupsiyani oldini olish hamda unga qarshi kurashishda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va ularni qo’llab-quvvatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tan olib aytish kerak, ilgari xodimlarning ijtimoiy himoyasi bo’yicha tizimda ko’plab kamchiliklar mavjud edi. Bu o’z navbatida, xodimlarning kayfiyatiga salbiy ta’sir qilib, yoshlarning ichki ishlar organlari sohasiga bo’lgan qiziqishi so’nishiga sabab bo’layotgandi.

Shuni katta mamnuniyat bilan aytish zarurki, endilikda mazkur yo’nalishda tub burilishlar yuz bermoqda. 2021-yil davomida ijarada yashab kelayotgan 2 688 nafar xodimga ijara pullari to’lab berildi, 466 nafar xodimga foizsiz qarz ajratildi. Shu bilan birga,

Ichki ishlar organlarining jami 816 nafar xodim va harbiy xizmatchilariga xonadonlar ajratildi (147 nafar xodimga imtiyozli (arzon) narxlarda hamda 669 nafar harbiy xizmatchiga ipoteka krediti asosida dastlabki badal pullari to’lab berildi).

2022-yilning 4 oyi davomida esa ijarada yashab kelayotgan 856 nafar xodimga ijara pullari to’lab berildi, 112 nafar xodimga foizsiz qarz berish uchun qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, uy-joy sotib olish uchun 270 nafar xodimga imtiyozli (arzon narxda) xonadonlar ajratildi. Xizmat vaqtida tan jarohati olgan 144 nafar xodimga 819 mln so’m, shuningdek, 13 nafar vafot etgan xodimning oila a’zolariga 3 mlrd 725 mln so’mdan ortiq tovon pullari ajratildi. Shu yilning o’tgan davri davomida belgilangan kvotadan tashkari o’qishga kirishlari uchun xodimlarning jami 1319 nafar farzandlariga tavsiyanoma va 537 nafariga taqdimnomalar berildi.

Shunday qilib, o’tgan qisqa vaqt mobaynida ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirildi. Faqat aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolinmasdan, tizimli preventiv choralar ko’rish yuzasidan muhim natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga asosan korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda faol ishtirok etish bundan buyon ham ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi bo’lib qolaveradi. Kelgusida korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun, avvalambor, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo’lishni kuchaytirish lozim.

Korrupsiyaning xavf-xatarlarini chuqur tahlil qilish asosida xodimlarni ushbu illat va uning oqibatlaridan xabardor qilish maqsadida huquqiy targ’ibot ishlarini jadallashtirish kerak.

Shuningdek, xizmat vazifalari yuzasidan bevosita fuqarolar bilan muloqotda bo'ladigan, korrupsiya xavfiga uchrash ehtimoli yuqori bo'lgan sohaviy xizmatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda inson omilini kamaytirishni izchil davom ettirish darkor.

Soha xodimlariga pora taklif qilgan va boshqa noqonuniy maqsadlarni ko'zlagan shaxslarga nisbatan kurashish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish talab etiladi. Ayni paytda, xodimlarni ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish masalalari doimiy diqqat-e'tiborda bo'lishi taqozo etiladi.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishda barcha bo'g'indagi rahbarlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish ham muhim hisoblanadi. Davlat hokimiyati institutlariga ishonch va korrupsiyaga qarshi choralarning ta'siri darajasini baholash maqsadida muntazam ravishda jamoatchilik fikrini o'rganish zarur.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

QONUNCHILIK

KAPITAL QURILISH SOHASIDA “KORRUPSIYASIZ SOHA” LOYIHASI AMALDA



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmonida, 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish, 2020-yil 1-apreldan boshlab loyihani boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, kapital qurilish sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha 33 ta baddan iborat "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Bugungi kunda "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifa va topshiriqlar

ijrosini ta'minlash, qurilish sohasida korrupsiya va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali qurilish jarayonlarining barcha bosqichida shaffoflikni ta'minlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Kapital qurilishda "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 4-bandida, Qurilish vazirligi tizimida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ko'magida, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirishga qaratilgan "komplayens-nazorat" ("compliance control") tizimini joriy etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-fevraldagi 72-f-son farmoyishi bilan, Qurilish vazirligi tizimida KPMG (Italiya) xalqaro auditorlik kompaniyasi ekspertlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish "komlayens-nazorat" tizimini joriy etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

KPMG (Italiya) ekspertlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlarning birinchi bosqichida, qurilish sohasiga taalluqli 25 ta qonun va 30 ta vazirlik ichki hujjatlari tahlil qilindi.

KPMG ekspertlari tomonidan 27 nafar vazirlik boshqarmalari va bo'lim boshliqlari bilan 40 soatlik intervyu o'tkazilib, tizimda yuzaga kelayotgan korrupsion holatlar kelib chiqishining 70 ta sababi aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan xorijiy ekspertlar tomonidan 50 ta tavsiya ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori asosida vazirlik tizimida komplayens nazorat bo'yicha mutaxassis shtat birligi tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi bilan kelishilgan holda tanlov asosida mazkur lavozimlarga nomzodlar tanlab olindi.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi hamda KPMG ekspertlari bilan hamkorlik dasturlari doirasida qurilish vazirligi tizimida bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, korrupsion jinoyatlar haqida xabar berish tartibi hamda davlat xaridlarini amalga oshirishning ochiq va shaffof mexanizimlarini o'zida ifodalagan 15 dan ortiq ichki idoraviy hujjatlar xalqaro standartlarga mos ravishda qayta qabul qilinishi ta'minlandi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi hamda KPMG ekspertlari ishtirokida vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan barcha ma'sul xodimlar, shuningdek, komplayens nazorati bo'yicha mutaxassislar uchun **20 dan** ziyod video konferensaloqa orqali hamda vazirlikda o'quv-seminarlari tashkil etildi. Mazkur o'quv-seminarlar OAV orqali yoritib borildi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda shaffoflikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrda **"Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PQ--4464-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan, **"Shaffof qurilish"** milliy axborot tizimi hamda davlat shaharsozlik kadastrini yuritish hamda shaharsozlik hujjatlari va ma'lumotlarini jamoatchilikka onlayn rejimda taqdim etish imkonini beruvchi **"O'zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastrini"** geografik axborot tizimi (geoportal)ni ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi 69-son qarori bilan Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi tashkil etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi **"Qurilish sohasida axborot tizimi va geografik axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 732-son qarori qabul qilinib, qurilish obyektlarini rekonstruksiya qilish, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ekspertiza, nazorat va monitoring faoliyatlari to'liq raqamlashtirildi.

Markaz tomonidan **"Shaffof qurilish"** milliy axborot tizimi doirasida:

- **"Qurilish sifat nazorati"** axborot tizimi;
- **"Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi"** axborot tizimi;
- **"Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza xulosalari"** elektron reyestri;
- **"Investitsiya dasturidagi obyektlar qurilishi monitoringi"** axborot-tahliliy tizimi;
- **"Qurilish sohasida davlat xizmatlari"** platformasi axborot tizimlari ishlab chiqildi.

Mazkur platforma orqali qurilishning ayrim turlarini litsenziyalash bo'yicha xizmat turlari to'liq raqamlashtirish tizimiga o'tkazildi.

"Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari boshqa davlat organlari axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan **integratsiya qilindi.**

"Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot tizimlarni respublikaning barcha hududlarida **2021-yil 1-yanvar kundan real vaqt rejimida to'liq ishga tushirilishi ta'minlandi.**

Kapital qurilish sohasida **"Korrupsiyasiz soha"** loyihasi doirasida, *loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati samaradorligini hamda natijadorligini oshirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, qurilish-montaj ishlari sifatini yanada yaxshilash borasida ham samarali ishlar amalga oshirildi.*

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi **"O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PF–5963-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq: 2020 yil 1 sentabrdan boshlab soliq va statistika hisobotlari ma'lumotlari, shuningdek, Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi ma'lumotlari asosida qurilish ishlari hajmlari va obyektlariga muvofiq tabaqalashtirilgan holda avtomatik tarzda shakllantiriladigan **Qurilish-pudrat tashkilotlarining elektron reytingi joriy etildi.**

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi **"Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 699-son qaroriga muvofiq **"Qurilish pudrat tashkilotlar reytingi"** axborot platformasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi "Vazirlar Mahkamasining "Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 9-noyabrdagi 699-son qaroriga o'zgartirish kiritish haqida"gi 64-son qaroriga muvofiq

“Loyiha tashkilotlari reytingi” axborot platformasi; Yo‘nalishlar kesimida yangilangan **“Qurilish-pudrat tashkilotlari reytingi”** axborot platformasi ishlab chiqildi.

Bular:

1. Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar qurilishi yo‘nalishi;

2. Umumqurilish-ijtimoiy obyektlar qurilish yo‘nalishi;

3. Melioratsiya va irrigatsiya obyektlari qurilish yo‘nalishi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-fevraldagi 55-sonli qarori bilan **“Qurilish sohasida tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”**gi vaqtinchalik Nizom tasdiqlandi.

Nizom talablariga asosan, 2021-yilda qurilish sohasidagi tanlov(tender)lar **“tender.mc.uz”** elektron portali orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. 2021-yil davomida amalga oshirilgan elektron tender savdolari jarayonlarida aniqlangan kamchiliklarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi **“Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 46-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan **“Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom”** tasdiqlandi.

Bugungi kunda ushbu Nizom talablari asosida qurilish sohasidagi tanlov(tender)lar **“tender.mc.uz”** elektron portali orqali amalga oshirilmoqda.

Qurilish-montaj ishlari ustidan nazorat o‘rnatish, obyektlarni foydalanishga qabul qilish jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, qurilish-montaj ishlari sifatini yanada oshirish, qurilish sohasidagi nazorat qiluvchi inspeksiyalar rolini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-fevraldagi **“Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”**gi PQ–586-son qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan, 2020-yil 1-apreldan boshlab qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash obyektlari uchun xavf-xatarlar toifalari va obyektlarning funksional maqsadlaridan kelib chiqqan holda davlat qurilish nazoratining takomillashgan yangi tartibi joriy etildi.

Shuningdek, **“Qurilishdagi nazorat”** quyi tizimi ishga tushirilib, **“Shaffof qurilish”** milliy axborot tizimida davlat qurilish nazoratini amalga oshirish doirasida elektron hujjat almashinuvi joriy etildi.

Hozirda **“Qurilishdagi nazorat”** tizimi orqali Respublika bo‘yicha 32800 nafardan ziyod foydalanuvchi nazorat faoliyatini yuritmoqda.

Kapital qurilish sohasida ma‘muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini berish hamda arxitektura-qurilish ishlarini amalga oshirish tartib-taomillarini maqbullashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-avgustdagi **“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini berish hamda arxitektura-qurilish ishlarini amalga oshirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** PQ–4427-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror asosida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalari tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun faqat **“E-IJRO AUKSION”** savdo maydonchasida elektron onlayn-auksion orqali berilishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi **“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususilashtirish to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarori bilan mazkur tizim yanada takomillashtirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 4-sentabrdagi 02-2488-sonli topshiriq xatiga asosan, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob Palatasi va Bosh prokuratura bilan hamkorlikda Qurilish vazirligi tizimida **Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2020–2021-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"** ishlab chiqilib, tasdiqlandi. "Yo'l xaritasi"da belgilangan topshiriqlar ijrosi doirasida, Qurilish vazirligi tizimida korrupsion holatlar va ularning kelib chiqish sabablarini hamda mavjud muammolarni aniqlash maqsadida sohani tartibga soluvchi **25 ta normativ-huquqiy hujjatlar va 30 ta ichki idoraviy hujjatlar** tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida **126 ta ehtimoliy korrupsion xavf-xatarlar aniqlandi** hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan **tegishli chora-tadbirlar** belgilandi.

Jumladan, KPMG (Italiya) ekspertlari bilan hamkorlik dasturining **to'rtinchi bosqichida** "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimiga **"Korrupsiyaga qarshi tartib-tamoillarni amalga oshirish samaradorligini tahlil qilish"** ishlari amalga oshirildi. Mazkur tahlil natijalari yuzasidan **KPMG (Italiya)** ekspertlari tomonidan taqdim etiladigan tavsiyalar asosida qo'shimcha ravishda chora-tadbirlar rejasi **ishlab chiqilishi belgilangan.**

Bugungi kunda, Qurilish vazirligi tizimida **korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish bo'yicha** belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash va tizimda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar davom ettirilmoqda.

Qurilish vazirligi Ichki audit va komplayens nazorat boshqarmasi

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

Gulnora BOBOJONOVA*



* O'zbekiston
Jurnalistlarni qayta
tayyorlash markazi
direktori,
Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi
huzuridagi
Jamoatchilik kengashi
a'zosi, f.f. n.

Annotatsiya: Maqolada ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratining muhim vositasi sifatida korrupsiya holatlari to'g'risida xabardor qilish va jamiyatda, fuqarolarda, unga nisbatan muhosabatni shakllantirish, unga qarshi kurashishda insonlarni faollashtirish imkoniyati va tarbiyaviy ahamiyatiga asosiy urg'u qaratilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-may

Qabul qilingan: 2022-yil 11-iyun

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-iyul

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar
Creative Commons «Attribution»
(«Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Bobojonova, G. 2022. Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining roli. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 2 (iyul 2022), 16–19.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss2-pp14-16>

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida boshqa jiddiy chaqiriq va tahdidlar qatorida korrupsiya muammosi jamiyatning beqarorlashuvi va inqirozli rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gap shundaki, korrupsiya jamiyatning demokratik asoslari, institutlari, asoslari va ma'naviy qadriyatlariga putur yetkazadi. Bularning barchasi bitta davlatga taalluqli emas, uning bunday ko'rinishlari allaqachon dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarqalgan.

Bundan tashqari, korrupsiya butun dunyo iqtisodiyotiga tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi. Shuning uchun ham dunyoning ko'plab davlatlari bu illatga qarshi har xil vositalar yordamida faol kurashib kelmoqda.

